



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLIK

Normirzayev Ilyosbek Ilhomjon o'g'li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6585368>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10- may 2022

Ma'qullandi: 14- may 2022

Chop etildi: 26- may 2022

KALIT SO'ZLAR

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish va uni tiklash, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish, O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini yo'qotganlik, Konstitutsiyasiga rioya etish majburiyatini.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida fuqarolikning tan olinishi, yo'qotilishi hamda ularning tartibi haqida so'z yuritiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining VI bobida fuqarolik haqida tushuntirishlar va ma'lumotlar keltirilgan. Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatilishi, fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanishi, o'z fuqarolarini davlat tashqarisida ham huquqiy himoya qilishi va ularga homiylik qilishi ko'rsatishni kafolatlashi, chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq normalariga muvofiq taminlashi haqida qoidalar ko'rsatilib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdir. O'zbekiston Respublikasi o'z organlari va mansabdor shaxslari orqali O'zbekiston Respublikasi fuqarolari oldida mas'uldir, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi esa davlat oldida mas'uldir. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tiklash, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish yoki O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish to'g'risidagi qarorlar O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti tomonidan farmonlar tarzida qabul qilinadi va imzolangan kundan e'tiboran kuchga kiradi. 2005-yil 1-yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan hamda muqaddam chet davlat fuqaroligida bo'lmagan shaxs xohish bildirgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinadi.

O'zini O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilgan kunga qadar O'zbekiston Respublikasida kamida o'n besh yil doimiy yashab kelayotgan va



mazkur davr mobaynida chet davlat fuqaroligida bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinadi. Ota-onasidan biri (yolg'iz otasi yoki onasi) O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olingan, chet davlat fuqaroligini qabul qilmagan va O'zbekiston Respublikasida yashab kelayotgan bola xohish bildirgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olinadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti, identifikatsiyalovchi kartasi yoki O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi mavjud ekanligini ko'rsatuvchi boshqa hujjat O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatdir.

Quyidagilar o'n olti yoshga to'lmagan bolaning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tasdiqlovchi hujjatdir:

tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma yoki ma'lumotnoma (bolaning tug'ilgan joyidan qat'i nazar) — ota-onasidan birining O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi mavjud ekanligini ko'rsatuvchi pasporti, identifikatsiyalovchi kartasi yoki boshqa hujjati ko'rsatilganda;

tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma yoki ma'lumotnoma (bola O'zbekiston Respublikasida tug'ilgan taqdirda) — fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bo'lgan ota-onaning (yolg'iz otaning yoki onaning) O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi ko'rsatilganda.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs bilan nikohdan o'tishi, shuningdek bunday nikohning bekor qilinishi er-xotinning fuqaroligi o'zgarishiga sabab bo'lmaydi.

Er-xotindan birining O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi o'zgarishi

ikkinchisining fuqaroligi o'zgarishiga sabab bo'lmaydi.

Nikohning bekor qilinishi ushbu nikohda tug'ilgan yoki nikoh bekor qilinguniga qadar farzandlikka olingan bolaning fuqaroligi o'zgarishiga sabab bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi o'z diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari orqali O'zbekiston Respublikasi fuqarolari chet davlatning qonunchiligida, O'zbekiston Respublikasi va chet davlat ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalarda o'ziga berilgan barcha huquqlardan, xalqaro huquqning umum tan olingan normalaridan, xalqaro urf-odatlardan to'laonli foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun choralar ko'rish shart. O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarining konsullik bo'limlari ham O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlarini himoya qilish va ularning buzilgan huquqlarini tiklash bo'yicha choralar ko'radi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi quyidagi hollarda olinadi:

- tug'ilganlik bo'yicha;
- bola farzandlikka olinganda;
- O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish va uni tiklash natijasida.
- O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida va ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra ham olinishi mumkin.

Bola o'zining tug'ilgan joyidan qat'i nazar, agar tug'ilgan paytida:

- a) ota-onasi (yolg'iz otasi yoki onasi) O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lsa;



- b) uning ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, boshqasi esa fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lsa yoki bedarak yo'qolgan deb topilgan yoxud uning turgan joyi noma'lum bo'lsa;

- v) uning ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, boshqasi esa chet davlat fuqarosi bo'lsa, tug'ilganlik bo'yicha O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini oladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish: umumiy tartibda, soddalashtirilgan tartibda, alohida tartibda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishning umumiy tartibi chet davlat fuqarosiga yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsga nisbatan quyidagi hollarda amalga oshiriladi, agar u:

a) chet davlat fuqaroligidan chiqishni rasmiylashtirgan bo'lsa;

b) fuqaroligi bo'lmagan shaxsga yashash guvohnomasi olingan kundan e'tiboran va O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish to'g'risidagi iltimosnoma bilan murojaat qilgan kunga qadar O'zbekiston Respublikasi hududida uzluksiz besh yil davomida doimiy yashab kelayotgan bo'lsa;

v) tirikchilikning qonuniy manbaiga ega bo'lsa;

g) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga rioya etish majburiyatini o'z zimmasiga olsa;

d) davlat tilini muloqot qilish uchun zarur darajada bilsa. Davlat tilini bilish darajasini aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishning soddalashtirilgan tartibi chet davlat fuqarosi bo'lgan yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs hisoblangan vatandoshga

nisbatan quyidagi hollarda amalga oshiriladi, agar u:

a) O'zbekiston Respublikasi hududida yashaydigan va O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan, nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan loaqal bitta o'zidan oldingi qarindoshga ega bo'lsa;

b) tirikchilikning qonuniy manbaiga ega bo'lsa;

v) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga rioya etish majburiyatini o'z zimmasiga olsa;

g) davlat tilini qonunchilikda belgilangan tartibda muloqot qilish uchun zarur darajada bilsa.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti milliy manfaatlardan kelib chiqib, chet davlatlarning fuqarolariga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida" qonunning 19 va 20-moddalari talablari qo'llanilmagan holda O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini berishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi quyidagilar oqibatida tugatiladi:

a) O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqish;

b) O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini yo'qotganlik.

Xorijda doimiy yashayotgan va yetti yil mobaynida doimiy konsullik hisobiga turmagan O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini aniqlash uchun konsullik muassasalari: konsullik muassasasiga shaxsan murojaat qilgan shaxslarning murojaatlarini yoxud konsullik muassasalariga Tashqi ishlar vazirligi orqali kelib tushgan ma'lumotlarni tekshiradi, shaxsning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansubligi to'g'risidagi chet davlatning so'rovnomalarini o'rganadi, o'z



konsullik okruglaridagi mamlakatlarda ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining hisobini yuritadi, xorijsa doimiy yashashga chiqib ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining har chorakda beradigan so'rovnomalarga ko'ra doimiy konsullik hisobi ro'yxatlari bo'yicha tekshiradi. Chet davlat fuqaroligini ixtiyoriy ravishda olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini aniqlash uchun ichki ishlar organlari va konsullik muassasalari manfaatdor vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralarning ma'lumotlarini tekshiradi, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning kelib tushayotgan murojaatlarini o'rganadi. gar o'n to'rt yoshga to'lmagan bolaning ota-onasi (yolg'iz otasi yoki onasi) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olsa yoki O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan chiqsa, ushbu bolaning fuqaroligi o'zgarishi mumkin.

Ota-ona (yolg'iz ota yoki ona) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini o'zgartirganda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bolaning fuqaroligi, basharti bola fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lib qolmasa, o'zgarishi mumkin. Ota-onalik huquqlaridan mahrum etilgan ota-onasining fuqaroligi o'zgarganda, bolaning fuqaroligi o'zgarmaydi. Bolaning fuqaroligi o'zgargan taqdirda, ota-onalik huquqlaridan mahrum etilgan ota-onasining roziligi talab qilinmaydi. Ota-onasining fuqaroligi o'zgarganda yoki bola farzandlikka olingan taqdirda o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolaning fuqaroligi faqat uning yozma roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi masalalarini hal etishga doir konstitutsiyaviy vakolatlarini amalga oshirish maqsadida besh yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari komissiyasi tuziladi.

Komissiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi maslahatko'maklashuvchi organdir. Komissiya tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Komissiya rais, rais o'rinbosari, kotib va Komissiyaning boshqa a'zolaridan tarkib topadi.

Komissiyaning raisi, rais o'rinbosari va boshqa a'zolari uning ishida jamoatchilik asosida ishtirok etadi.

Komissiya majlisida rais yo'q bo'lgan taqdirda uning vazifalari rais o'rinbosarining zimmasiga yuklatiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik masalalari komissiyasining reglamenti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi shaxslarga nisbatan fuqarolik masalalariga oid qarorlarni ijro etish Ichki ishlar vazirligi va uning tegishli bo'linmalari zimmasiga, xorijsa yashaydigan shaxslarga nisbatan esa Tashqi ishlar vazirligi va tegishli konsullik muassasalari zimmasiga yuklatiladi. O'ziga nisbatan O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish, uni tiklash yoki undan chiqish bo'yicha qaror qabul qilingan shaxs bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining fuqarolik masalalariga oid qarori kuchga kirgan kundan e'tiboran o'n besh kunlik



muddatda ichki ishlar organi yoki konsullik muassasasi tomonidan xabardor qilinadi.

Xulosa: O'zbekiston Respublikasida fuqarolikka ega bo'lish tartibi va fuqarolarning huquqlardan foydalanish qonunda belgilangan. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi sohasida yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi. Bu qonunga

amal qilmaslik javobgarlikni keltirib chiqaradi. Ichki ishlar vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar qonunning ijrosini, ijrochilarga muntazam yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida yanada ko'proq tushuntirilishi lozim deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://lex.uz/docs/-20596> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi
2. <http://lex.uz/docs/-4761984> O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida
3. *O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyundagi O'RQ-696-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.06.2021-y., 03/21/696/0553-son)*